

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**NEFT VA GAZNI QAYTA ISHLASH
KIMYOVIY TEXNOLOGIYASI KAFEDRASI**

HISOB-TUSHUNTIRISH AXBOROTI

**Bitiruv ishi mavzusi: Butan va butelin fraksiyasidagi
izobutanni sulfat kislotali alkinlash texnologiyasi.
Quvvati 38 000 t/yil**

Guruh: 23-13 NNGQIT

F.I.SH: Qurbonov Xurshid Oripovich

TOSHKENT - 2017

MUNDARIJA

	Sahifa beti
KIRISH_____	4
1. TEXNIK-IQTISODIY ASOSLAR _____	11
2. XOM ASHYO, MODDALAR VA TAYYOR MAHSULOT TAVSIFI _____	13
3. IZOBUTANNI N-BUTEN BILAN SULFAT KISLOTA BILAN ALKILLASH _____	19
4. ASOSIY QURILMANING TEXNOLOGIK HISOBI_____	26
5. O’LCHASH ASBOBLARI VA AVTOMATLASHTIRISH _____	33
6. ATROF-MUHIT MUHOFAZASI_____	37
7. MEHNAT MUHOFAZASI_____	43
8. FUQARO MUHOFAZASI_____	48
9. IQTISODIYOT BO’LIMI_____	52
10. BITIRUV ISHINING QISQACHA MAZMUNI_____	63
11. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI_____	64

KIRISH

Jahondagi ilg'or iqtisodiy tadqiqot markazlarining ma'lum qilishicha, XXI-asrda dunyo bo'yicha resurslar iste'moli sezilarli ravishda o'sishi, bu birinchi navbatda iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda kuzatilishi mumkinligi haqida bashorat qilinmoqda. Bu holat jahon energetika resurslari bazasini qo'shimcha ravishda rivojlantirishni talab etmoqda.

Shu bilan bir qatorda mustaqillikka erishganimizdan so'ng prezidentimiz tashabbusi bilan neft mustaqilligiga erishildi. Shundan so'ng bu sohaga alohida, chuqur e'tibor berila boshlandi. Respublikamizning neft-gaz sanoati xalq xo'jaligining asosiy bo'g'ini bo'lib, muhim energetika bazasi hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqil bo'lgandan neft-gaz sanoatini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Ilgarigi o'z holicha ish yurituvchi neft, gaz, neft va gazni qayta ishlash tarmoqlari yagona tarmoq - "O'zbekneftgaz" milliy holding korporatsiyasiga birlashtirildi.

Bukorporatsiyaning tarkibida neft va gazni qayta ishlash bo'yicha uchta yirik korxona ishlab turibdi. Bular : "O'zneftni qayta ishlash" davlat sanoat birlashmasi, Sho'rtan va Muborakdagi gazni qayta ishlash zavodlari, "O'zneftni qayta ishlash" birlashmasi tarkibiga Farg'ona, Oltiariq va Buxorodagi neftni qayta ishlash zavodlari kiradi. Bu korxonalar uchun xomashyo neft, gaz kondensati va tabiiy gaz hisoblanadi. Gaz kondensatining kimyoviy tarkibi neftning kimyoviy tarkibiga o'xshash bo'lib, faqat qaynash temperaturasining oxiri bilan farqlanadi. Shu sababli gaz kondensati va neftlar bir xil qurilmalarda qayta ishlanadi.

Neft va gaz kondensatini qayta ishlash ikki xil yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchisi yoqilg'i yo'nalishi. Buna neft va gaz kondensatini atmosfera bosimining 360° C gacha qizdirib, ulardan benzin, kerosin va dizel yoqilg'isi, fraksiyalarini ajratib olinadi. Qolgan og'ir qismi-mazutni katalitik kreking, termik kreking yoki gidrokreking qurilmalariga berilib, qo'shimcha ravishda benzin, kerosin va dizel yoqilg'isi olinadi.

Ikkinchi yo'nalish- yoqilg'i moylar olish yo'nalishidir. Bu yo'nalishda neft va gazokondensatni yengil fraksiyalar olingandan so'ng, qoldiq vacuum qismi- mazut

ostida ishlovchi qurilmalarda turli fraksiyalarga ajratilib ulardan har xil neft moylari olinadi.

Shunday qilib, Respublikamizning "O'zneftgaz" holding shaklidagi milliy korporatsiyaning korxonalari mamlakitimizning xalq xo'jaligining tarmoqlarining sifatli neft va gaz mahsulotlari bilan to'la ta'minlanmoqda.

Chetdan bu mahsulotlar olib kelinmaydi. Yuqorida neft va gaz kondensati bir xil texnologik qurilmalarda qayta ishlanadi deb aytib o'tgan edik. Shu sababli bizning loyiha ishimiz farg'ona neftni qayta ishlash zavodining asosiy texnologik qurilmalariga asoslangan. Oltiariqdagi zavodda mazutni termik kreking jarayoniga berilib mazutdan qo'shimcha ravishda yengil fraksiyalari olinadi.

Neftdan olingan benzin fraksiyasini oktan soni 55-60 ga teng. Uni avtomobilllarda ishlatib bo'lmaydi.

Benzinni katalitik reforming qilish qurilmalarida oktan sonini oshirilib, undan sifatli mahsulot olinadi.

Neftdan olingan kerosin va dizel yoqilg'isi fraksiyalarini tarkibida oltinguggurt birikmalari ko'p. ularni gidroochistka jarayoniga berilib, merkaptanlar va boshqa birikmalardan tozalanadi.

Vakum sharoitida ishlaydigan kolonnadan olinadigan moy fraksiyalarini har qaysisini alohida -alohida qayta ishlanadi. Birinchi navbatda ularni tarkibidagi aromatic uglevodlardan va smolasimon birikmalar ajratib olinadi. Keyin yuqori molekulali qattiq parafuilar ajratib olinadi.

Mirziyoyev Jizzax neftni qayta ishlash majmuasiga tamal toshi qo'ydi
O'zbekiston 27 Aprel 2017 17610

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatiga safari doirasida Zafarobod tumaniga tashrif buyurdi. Tumanning "Chimqo'rg'on" qishloq fuqarolar yig'ini hududida Jizzax neftni qayta ishlash majmuasi qurilishiga tamal toshi qo'yish marosimi bo'ldi. Bu haqda O'zA agentligi xabar qilmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va

diversifikatsiyalash, tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish orqali uning raqobatbardoshligini oshirish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Energetika sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarga muvofiq, Jizzax viloyatida zamonaviy neftni qayta ishlash kompleksi barpo etiladi. Qiymati 2,2 milliard dollar bo'lgan loyiha yiliga 5 million tonna neft xomashyosini qayta ishlash imkonini beradi.

Prezidentimizning Qozog'iston va Rossiyaga davlat tashriflarida olib borilgan samarali muzokaralar natijasida majmua uchun xomashyo yaqinda barpo etiladigan neft quvuri orqali yetkazib kelinadi. Bu energiya resurslarini yetkazish xarajatlarini keskin kamaytiradi va loyihaning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Majmuaning geografik joylashuvi ishlab chiqarilgan mahsulotni mamlakatimizning barcha hududlariga va eksportga minimal xarajatlar bilan yetkazish imkoniyatini ta'minlaydi.

Zavodda uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlash bo'yicha eng zamonaviy, ekologik va energetik jihatdan samarador texnologiyalar o'rnatiladi. Ular asosida jahon standartlariga javob beradigan motor va aviatsiya yoqilg'isi, benzol, mazut, bitum va boshqa neft mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Aviatsiya kerosini ishlab chiqarish miqdorini oshirish havo kemalarimizning parvoz geografiyasini sezilarli darajada kengaytirish, yetakchi xorijiy aviakompaniyalar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik orqali yo'lovchi va yuk samolyotlarining tranzit reyslarini oshirish bilan bir qatorda mamlakatimiz aviatsiya sohasini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Asaka avtozavodi konveyyeridan dastlabki avtomobil chiqqanidan buyon atigi o'n to'qqiz yil o'tdi. Ayni paytda yurtimiz yo'llari va ko'plab davlatlar avtomagistrallarida kechayu kunduz harakatlanayotgan «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» belgisi ostidagi yuz minglab mashinalar iqtisodiyotimizning samaradorligi va yuksak salohiyatini namoyish etmoqda.

Avtomobilsozlik iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu sohada salmoqli natijalarga erishish uchun, birinchi navbatda, keng ko'lamli vazifalarni hal etish, ya'ni raqobatbardosh va eksportbop

avtomobillar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish hajmini bosqichma-bosqich oshirish, iste'molchilar istaklarini inobatga olgan holda, mashinalar rusumini muntazam yangilash, avtomobillarning keng turdagi tarkibiy qismlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish zarur.

Asaka avtomobil zavodi o'z faoliyati ko'lamini yil sayin kengaytirib bordi. 2001-yilning may oyida konveyyerdan ikki yuz ellik minginchi avtomobil chiqdi. Albatta, milliy avtomobilsozligimiz bu bilan cheklanib qolgani yo'q. Yangi avtomobil modellarini ishlab chiqish va o'zlashtirish borasidagi ishlar jadal sur'atlar bilan davom ettirildi. 2001-yilning avgust oyida "O'zDEUavto" "Matiz" avtomobili, 2002-yilning sentabrida yangi rusumdagi "Nexia DOHC" sedanini ishlab chiqarishni boshladi. Qo'shni davlatlar, jumladan, Rossiya bozorida ko'p yillar mobaynida mazkur avtomobillar talab nuqtai nazaridan reytinglarda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Xususan, "Matiz" avtomobili Rossiya bozorida bir necha bor "Yil avtomobili" sifatida e'tirof etildi. Keyinchalik kompaniya sifat, peshqadamlik, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalar uchun International Quality Summit - New York xalqaro mukofotiga sazovor bo'ldi.

Bugun mamlakatimiz avtomobilsozligini sanoatimiz lokomotivi deb aytish mumkin. Negaki, ushbu soha bir-biri bilan o'zaro bog'liq tarmoqlarni rivojlantirish va aholi bandligini barqaror ta'minlash imkonini berayotir. "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi tarkibida 27 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgan qator korxona va tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ular orasida xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotlar tayyorlash, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni samarali yo'lga qo'yish imkonini beradigan zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan avtomobilsozlik va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqaradigan korxonalar bor.

Tarmoqni avtomobillarni sotish va ularga servis xizmati ko'rsatish bo'yicha kompleks xizmatlarni tashkil etmasdan rivojlantirib bo'lmaydi. Ayni paytda barcha viloyatlar markazida avtomobillarni sotish va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan stansiyalar faoliyat yuritmoqda. Ular zamonaviy asbob-uskuna va diagnostika vositalari bilan ta'minlangan.

Shuni ta'kidlash joizki, nafaqat "Damas", "Matiz", "Spark", "Nexia", "Lacetti", "Cobalt", "Captiva", "Malibu" va "Orlando" yengil avtomobillari, balki yuk avtotransportlari, avtobuslar, maxsus mashinalar va keng turdagi ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish ham milliy avtosanoatimizning muhim yo'nalishlaridandir.

Samarqand avtomobil zavodida avtobus va yuk mashinalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lib, zavod Yaponiyaning "Isuzu Motors" kompaniyasi bilan hamkorlik samarasida rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan transport vositalari yuqori texnik ko'rsatkichlari va zamonaviy dizayni bilan ajralib turadi. Bu esa "SamAvto" texnikalariga xalqaro bozorda barqaror o'rinni egallash va nufuzli ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlashish imkonini bermiqda.

"JV MAN Auto - Uzbekistan " O'zbekiston - Germaniya qo'shma korxonasida 15 tonnadan 50 tonnagacha yuk kotarish kuchiga ega ishonchli va zamonaviy transport vositalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ushbu avtotransport vositalaridan avtomobil va temir yo'llar qurish hamda ularni rekonstruksiya qilish, shaharlararo yuk tashishda samarali foydalanilmoqda. Bundan tashqari, avtokranlar, bortli avtomobillar, izotermik furgonlar, suv tashiydigan va boshqa ko'plab vazifalarni bajaradigan yo'l mashinalari, beton qoradigan, don, paxta va chiqindi tashiydigan mashinalar ham keng ommalashgan.

Milliy avtosanoatimiz xususida so'z yuritganda, yana bir o'ziga xos obyekt - avtomobil dvigatellarini ishlab chiqarish bo'yicha Markaziy Osiyodagi yagona "GM Powertrain Uzbekistan" zavodini ham qayd etib o'tish joiz. 2011-yil noyabr oyida o'z faoliyatini boshlagan ushbu zavod yiliga 200 mingtagacha dvigatel ishlab chiqarish quwatiga ega bo'lib, yuqori texnologiyali asbob-uskunalar, jumladan, eritish va quyish, alyuminiyga termik ishlov berish, silindr bloklar tayyorlash vositalari, avtomatik yig'ish liniyalari va nazorat-o'lchov qurilmalari bilan jihozlangan. Texnologik jarayonning komputerlashtirilgani ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini nazorat qilish imkonini bermiqda va bu xalqaro ekologik xavfsizlik standartlariga to'la javob beradi. Bugungi kunda GM global tarmog'iga

kiradigan xorijiy avtomobilsozlik korxonalarida ham O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan dvigatellardan foydalanilmoqda.

"O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning birinchi choragida 55 mingta yengil avtomobil, 1,1 mingdan ortiq "ISUZU", 198 "MAN" rusumli yuk mashinalari, 129,8 ming dona akkumulyator, 30 mingta kuch agregati va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Ayni paytda kompaniya ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish va eksportni kengaytirish borasida muntazam ish olib bormoqda. Bugun MDH mamlakatlarida yurtimiz avtomobil sanoatining 250 dan ortiq dileri faoliyat yuritayotir. Rossiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog'iston, Afg'oniston, Indoneziya, Braziliya, Turkiya, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlarga mahsulotlar eksporti yo'lga qo'yilgan.

Mahalliyashtirishni kengaytirish avtomobilsozlikni rivojlantirish va uning ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarish jarayoniga yangi samarali texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va ehtiyot qismlar importini qisqartirish hisobiga valyutani tejash imkonini beradi.

Shu bois yurtimiz mashinasozlari avtomobillar uchun zarur ko'plab ehtiyot qismlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish ustida izlanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bamper, avtooyina va o'rindiqlar, o'rindiq g'iloflari, lok-bo'yoq materiallar, tutun chiqaradigan quvur va zarbga qarshi to'sinlar, yonilg'i baklari, chiroq va yoritish priborlari, jgut, elektr simlar, akkumulyatorlar, g'ildirak disklari va shassi uzellari, yonilg'i nasoslari, generator va kompressorlar ishlab chiqaradigan o'nlab korxonalar faoliyat yuritmoqda. «O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi tizimidagi korxonalar yurtimizdagi 200 dan ortiq korxona bilan kooperatsiya aloqalarini o'ratgan.

Prezidentimiz Islom Karimovning shu yil 11-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan 2015- 2019-yillarda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi soha korxonalari uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda. «O'zavtosanoat» korxonalari ushbu dasturga

muvoqif amortizator, spidometr, avtomobillar uchun rezinotexnik buyumlar, kichkina va statsionar batareya, radiator, konditsioner va shovqinni to'suvchi materiallar kabi 60 turdan ortiq sanoat mahsulotini mahalliyashtirishni rejalashtirmoqda.

Yangi rusumdagi avtomobillar ishlab chiqarish muhim yo'nalishlardan biridir. Xususan, Xorazm viloyatida foydalanishga topshirilgan avtomobil zavodi yiliga 40 mingdan ortiq «Damas» va «Orlando» rusumli avtomobillarni ishlab chiqarish qvvatiga ega. «O'zavtosanoat» kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda korxonada «Labo» rusumli yangi modelni o'zlashtirish borasida ish olib borilmoqda. «Compact LCV» segmentidagi yo'lovchi-yuk tashish avtomobillar oilasiga mansub ushbu mashinaga mahalliy va xalqaro bozorda talab yuqori.

«O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi Prezidentimizning shu yil 4-martda qabul qilingan 2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash chora-tadbirlari dasturi to'g'risidagi farmonida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirmoqda. Ushbu farmon doirasida kompaniya "JV MAN Auto - Uzbekistan» qo'shma korxonasi va «Uzautotrailer»da kabinalar yig'ish va yuk avtotransportlari ehtiyot qismlarini mahalliyashtirish, Jizzax akkumulyator zavodining texnologik asbob-uskunalarini modernizatsiya qilish, «Gentra», «Spark», «Cobalt», «T250» va boshqa avtomobillar uchun plastmassa detallar, tormoz tizimi tarkibiy qismlari, alyuminiydan ehtiyot qismlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqda.

Muxtasar aytganda, mamlakatimiz avtomobil sanoati o'zining o'n to'qqiz yillik tarixi davomida ko'p sinovlarni o'tkazib, katta o'zgarishlarni amalga oshirdi. Bugun bozor talablaridan kelib chiqqan holda tarmoq oldiga yangi vazifalar qo'yilmoqda. Zero, mamlakatimiz avtomobil sanoati yangi marralarni zabt etish uchun keng ko'lamli ishlarga tayyor.

TEXNIK IQTISODIY ASOSLAR

Jizzaxdagi yangi neft zavodini xom-ashyo bilan taminlash uchun, Qozog'iston chegarasigacha neft quvuri quriladi, deb xabar qilmoqda RIA Novosti «O'zbekneftegaz» vakili so'zlariga asosan.

Ushbu yilning aprel oyi oxirida Jizzax viloyatida yangi neftni qayta ishlash zavodi qurilishi boshlangan edi. Umumiy qiymati 2,2 milliard dollar bo'lgan neftni qayta ishlash zavodi yiliga 5 million tonna neftni qayta ishlash quvvatiga ega bo'ladi. Yangi zavodga xom ashyo Rossiyadan, Qozog'iston orqali olib kelinadi.

"Biz Qozog'iston bilan «Omsk-Pavlodar-Chimkent» neft quvurini mamlakatimiz hududigacha olib kelishga kelishib oldik. Buning uchun 95 km neft quvuri qurilsa bo'ldi. O'zbekiston yiliga 5 million tonna neft olish imkoniga ega bo'ladi", - dedi suhbatdosh.

Uning so'zlariga qaraganda Qozog'iston tomoni «Omsk-Pavlodar-Chimkent» neft quvurining o'z hududidan o'tgan qismini qayta tiklashga rozi bo'lgan. Ushbu neft quvuri Jizzax viloyati hududiga juda yaqin j oydan o'tgan.

Eslatib o'tamiz, mart oyining oxirida "O'zbekneftegaz» va Qozog'istoning «Kazmunaygaz» milliy kompaniyasi neft va gaz sohasida hamkorlik qilish haqida shartnoma imzolashgan edi. O'shanda Qozog'iston O'zbekistonga temir yo'l sisternalarida istalgan miqdorda neft yetkizib berishga tayyor ekanini xabar qilgan edi.

"Neft quvuri qurilishi yangi zavodning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Biz bundan keyin neftni temir yo'l orqali yetkizib berish tizimidan voz kechamiz", — dedi "O'zbekneftegaz" vakili.

Xolding xabariga ko'ra, O'zbekistonga temir yo'l orqali yetkizib berilayotgan bir tonna neftning narxi 150-250 dollarni tashkil qiladi.

Rejaga ko'ra, yangi qurilayotgan zavod har yili 3,7 million tonna motor moyi, 700 ming tonna aviatsiya kerosini va 300 ming tonna qo'shimcha neft mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi. Zavod qurib bitkazilishi 2022-yilga rejalashtirilgan.

O'zbekistondagi neft zavodining umumiy quvati 11-12 mln tonnani tashkil qiladi. Bugungi kunda ushbu korxonalar o'z quvvatining 60% idan foydalanmoqda. Oxirgi yillarda O'zbekistonda neft mahsulotlari tanqisligi muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbekiston va Rossiya muassasalari aprel oyining boshida neft yetkizib berish haqida shartnoma imzolagan edi. Unga ko'ra dastlabki bosqichda Rossiya O'zbekistonga 500 ming tonna neft yetkizib beradi. Rasmiy xabarlariga ko'ra, O'zbekistonda 2002-yildan 2012-yilga qadar suyuq uglevodlar qazib olish hajmi 7,24 mln tonnadan 3,17 mln tonnagacha kamaygan. Neft va gaz kondensati qazib olish ushbu tabiiy boyliklarning O'zbekistondagi zahirolari kamayishi tufayli sodir bo'lgan. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi Farg'ona viloyatining Kergeli shaharchasida joylashgan. Zavod 1956 yilda ishga tushirilgan bo'lib, neft xomashyosini qayta ishlashga mo'ljallangan.

Zavod quyidagi maxsulotlarni ishlab chiqaradi:

- turli rusumdagi avtobenzinlar;
- aviatsiya kerosini;
- dizel yoqilg'isi;
- mazut yoqilg'isi;
- suyultirilgan gaz.

Biz loyihalayotgan bitiruv malakaviy ishimizda kreking jarayonidan chiqayotgan butan va butelin gazlarini sulfat kislata yordamida alkillab 2.2.4, 2.3.4 va 2.3.3 metilpentanla aralashmasi hosil qilib normal oktan soniga ega bo'lgan izoktan va motor yoqilg'ilarini sifatini oshiradigan qo'shimchalar ishlab chiqarishdan iborat. Hozirgi kunda neft maxsulotlarini temir yo'l oraqli tashish tonnasiga 100-150 dollar sarf xarajatni talab qilar edi. Shu maxsulotlarni o'zimizda bor xom ashyodan foydalanib sifatli maxsulot ishlab chiqarish mamlakatimiz neft maxsulotlari importini kamaytirib sarf xarajatlarni tejash hisoblanadi. Xalq xo'jaligini sifatli yoqilg'i bilan taminlash jahon standartlariga javob beradigan sifatli yoqilg'i ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. Yurtimiz neft va neft maxsulotlarini eksportini oshirish va yevro standartlarga mos keladigan yoqilg'i ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hisoblanadi.


XOM ASHYO, MODDALAR VA TAYYOR MAXSULOTLAR TAVSIFI

Ushbu jarayon yuqori oktanli motor yoqilg'ilari sintez qilish uchun qo'llaniladi. Parafinlarni olefinlar bilan alkillash ekzotermik jarayon bo'lib, uglevodorodlar krekingini teskarisidir:






Alkillash katalizatorlari sifatida kislotali katalizatorlar -AlCl₃, HF, H₂SO₄ va x.k. qo'llaniladi


Izoparafinlar katalitik alkillash reaksiyalariga kirishadi. Olefinlar turli xil bo'lishi mumkin (etilen), lekin ko'pincha n-butenlardan foydalaniladi, ular izobutanni alkillab uglevodorodi hosil qiladi, n-butenni izobutan bilan o'zaro birikish natijasida 2,2,4-, 2,3,4- va 2,3,3-uch metilpentanlar aralashmasi hosil bo'ladi. Birinchi izomerni izooktan deyiladi, u oktan soni shkalasida etalon hisoblanadi, uning uchun oktan soni 100 teng deb qabul qilingan.




Reaksiya ionli mexanizm asosida sodir bo'ladi. N-olefindan hosil bo'lgan ikkilamchi karbokation uchlamchiga nisbatan be'qaror bo'lganligi sababli, gidrid-ionni izoparafin bilan tez almashinishi sodir bo'ladi, bunda hosil bo'ladigan uchlamchi-butil kation keyinchalik olefin bilan o'zaro ta'sir etadi. Masalan, n-butenlarni kislota ishtirokida protonlanish va karbokation hosil qilishini ko'rish mumkin:



Hosil bo'lgan tarmoqlangan karbokation izomerlanish reaksiyasiga kirishadi, bunda vodorod va metil guruhlarini migratsiyasi yuz beradi.




Ushbu karbokationlarning har biri izobutan bilan reaksiyaga kirishadi, natijada izoktan va uchlamchi butil kationi hosil bo'ladi:



u esa, ion-zanjirli jarayon borishi ta'minlaydi. Izomerlar tarkibi oraliq karbokationlar barqarorligi va izobutan bilan almashinish reaksiya tezligi bilan bog'liq.

Shubxasiz, hosil bo'ladigan oraliq izooktil kationi ham olefinlar bilan reaksiyaga kirishib, yuqori molekullari mahsulot hosil qilishi mumkin. Ushbu oraliq reaksiyani va olefinning kationli polimerlanishini oldini olish uchun olefinga nisbatan parafinni to'rt, olti marta ko'p olinadi. Bunda ikki xil paralell reaksiya


sodir bo'lishi mumkin: ikkinchi reaksiya birinchiga nisbatan sekinroq boradi, bu esa birinchi mahsulot selektivligini ko'paytiradi.




Alkillash sulfat kislota ishtirokida 0-10 °C, vodorod florid ishtirokida esa 20-30 °C va yuqori bosimda olib boriladi. Bosimni ko'tarilishi gazsimon moddalar hosil bo'lishini ko'paytiradi, destruktiv jarayonlar sodir bo'lishi ehtimolini kamaytiradi. Xuddi shundek, alkillashning ketma-ket parallel reaksiyalari sodir bo'ladi, yuqori uglevodorodlar miqdorini kamaytirish uchun olefinga nisbatan izoparafin niqdorni ko'proq olish kerak.

Izobutanni butenlar bilan alkillashda hosil boigan alkilat tarkibida 6-10% uglevodorodlar, 5-10% S9 va undan yuqori uglevodorodlar bo'ladi. Ular yuqori temperatura ta'sirida ro'y beradigan destruksiya jarayonlari natijasida hosil bo'ladi.

Yana bir oraliq reaksiya-olefinlarni kationli polimerlanish reaksiyasi natijasida past molekulali to'yinmagan polimerlar hosil bo'ladi, ular alkilat sifatini birmuncha vomonlashtiradi va katalizator sarfini ko'Davishiea olib keladi:



Sulfat kislota katalizatorligida alkillash reaksiyasini 0-10 °C temperaturada, suvsiz vodorod florid bilan 20-30 °C, bosim ostida olib boriladi. Izobutanni etilen bilan AlCl_3 ishtirokida alkillash jarayoni bosim ostida 50-60 0 (f da sodir bo'ladi. Sanoatda olefinlardan alkillovchi vosita sifatida n-butenlar (1 va 2 izomerlar aralashmasi) eng ko'p qo'llaniladi, ular izobutan bilan alkilat hosil qiladi. Alkilat C_8 uglevodorodlari, ya'ni izooktan bilan to'yingan bo'ladi. Ko'pincha xom-ashyo sifatida kreking gazlarning butan-buten fraksiyasidan foydalaniladi, ularning tarkibi barcha kerakli reagentlardan iborat va ular 1,3-butadiendan tozalangan bo'ladi.



4-rasm. Izobutanni n-buten bilan alkillash texnologik sxemasi: 1-kompressor, 2-idish, 3-kondensator, 4-reaktor, 5-drosel ventily, 6-depropanizator, 7,9-separatorlar, 8-neytralizator, 10-debutanizator, 11-issiqlik almashtirgich, 12-kondensator deflegmatorlar, 13-qaynatgichlar.

Jarayon uchun ikki turdagi jixozlar qo'llaniladi, ular ajralayotgan issiqlik tashqariga chiqarish usuli bilan bir-biridan farq qiladi: suyuq ammiak (yoki propan) bilan ichki sovutish yoki ortiqcha izobutanni bug'latish bilan amalga oshiriladi. Birinchi xolda alkilatorlar aralashtirgich bilan ulangan bo'lib, sovutish trubalari mavjud bo'lib, unda issiqlik beruvchi bug'lantiriladi. Uning bug'lari sovutish qurilmasiga yuboriladi, u erda ular yana suyuqlikka aylanadi.

Eng samarali usullardan biri, bu ortiqcha izobutanni bug'latish bilan issiqlikni chiqarish hisoblanadi, bunda temperaturani boshqarish osonlashadi. Ushbu prinsip asosida ishlaydigan reaktorlar 4-rasmida ifodalangan.

Butan aloxida xar bir seksiyaga yuboriladi, buning natijasida seksiyalardagi olefin konsentratsiyasi juda kam bo'ladi, bu esa oraliq polimerlanish reaksiyasini to'xtatish imkoniyatini hosil qiladi.

4-reaktor aralashtirgichli bir nechta seksiyaladan iborat (kaskadlar). Sulfat kislota va izobutan 1-chi seksiyaga chap tomondan yuboriladi va emulsiya vertikal to'siqlar orqali bir seksiyadan boshqasiga oqib o'tadi. Ikkinchi o'ng tomondan seksiya separator vazifasini bajaradi, unda kislota uglevodorodlardan ajratiladi va alkillash uchun qaytariladi. Oxirgi to'siqdan uglevodorodlar aralashmasi oqib tushadi va keyingi qayta ishlashga yuboriladi. Izobutanni n-buten bilan alkillash texnologik sxemasi 36-rasmda ko'rsatilgan. 4-chi alkilatorga (birinchi chap seksiya) suyuq izobutan, toza sulfat kislota yuboriladi, xar bir seksiyaga suyuq n-buten yuboriladi. Ajralayotgan issiqlik hisobiga ortiqcha izobutanning bir qismi bug'lanadi, lining bug'lari 2- idishga yig'iladi, u bir vaqtning gaz uzluksiz ravishda 1-kompressor yordamida 0,6 MPa bosim bilan siqiladi, va shu bosimda 3-chi suv sovutgichda kondensatsiyalanadi 5-chi drossel ventilida bosim 0,2 MPa gacha kamayadi, bunda izobutanni bir qismi drossellanganda bug'lanadi va 2-chi idishda ajratiladi. U erdan suyuq izobutan yana alkilatorga qaytariladi. Qurilmani uzluksiz ishlash mobaynida izobutanda uglevodorodlar destruksiya hisobiga hosil bo'lgan miqdori ko'payadi. Shuning uchun izobutan sovutgich sikliga dcpromanizator 6-chi rektifikatsiya kolonnasi qo'shiladi. Rektifikatsiya kolonnasida izobutan propandan tozalanadi va 2-chi idishga yuboriladi.

4-alkilatorning oxirgi seksiyasidan chiqayotgan aralashma tarkibida ortiqcha izobutan, oktanlar C_5H_7 uglevodorodlar bo'ladi.

Aralashmani 7-separatorga sulfat kislota qoldiqlaridan tozalash uchun yuboriladi. Kislotani alkilatorga qaytariladi, lekin uning bir qismini reaksiya muhitidan chiqariladi, uning o'miga tozasi yuboriladi 7-chi separatordan kelayotgan uglevodorod qatlami 8-chi apparatda 10%-li ishqor eritmasi bilan neytrallanadi va hosil bo'lgan emulsiyani 9-chi separatorda ajratilavdi. Neytrallangan uglevodorodlar aralashmasini ajratish uchun 10-rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi.

Izobutan kondensatsiya uchun arzon sovutish vositasi suvdan foydalanish uchun, kolonnadagi bosim -60 MPa ortmasligi kerak. Kolonnaga toza izobutan fraksiyasi yuboriladi. Izobutanning bir qismi 10-chi kolonnaga yuboriladi, qolgan


qismi drossellangandan so'ng 2-chi idishga keladi, u erdan yana reaksiyaga qaytadi. SHunday qilib, izobutan sirkulyasiyasi sodir bo'ladi. 10-kolonna kubidan tayyor alkilat olinadi.

Bunday jarayonlar turiga aromatik birikmalar va parafinlarni alkilash reaksiyalarini olish mumkin. Umumiy xolda ularni quyidagicha ajratish mumkin:


- a) aromatik uglerod atomi bo'yicha alkilash;
- b) to'yingan uglerod atomi bo'yicha alkilash.

Sanoatda aromatik uglevodorodlarni (benzol, toluol va x.k.) xlorli birikmalar bilan alkilash reaksiyalarida katalizator sifatida alyuminiy xloriddan foydalaniladi, chunki u barcha aproton kislotalarga nisbatan arzon turadi. Uglevodorodlarni olefinlar bilan alkilashda ham $AlCl_3$ qo'llaniladi, lekin bu jarayonda boshqa katalizatorlardan foydalanish mumkin (kislotali katalizatorlardan H_2SO_4 , HF , BR_3 , H_3PO_4 , seolitlar va x.k.)

Aromatik birikmalarni istalgan katalizatorlar ishtirokida alkilash jarayonida vodorod atomining navbatma navbat almashinish natijasida turli alkilash darajasiga ega bo'lgan mahsulotlar aralashmasi hosil bo'ladi. Masalan benzolni metillash va etillash reaksiyasida geksalkilbenzollar hosil bo'lishi mumkin:



propillash reaksiyalarida tetrapropilbenzol va x.k. hosil bo'ladi. Past xaroratda yuqoridagi barcha reaksiyalar qaytmas tarzda sodir bo'ladi. Lekin $AlCl_3$ katalizatori ishtirokida maxsus shart sharoitda reaksiya qaytar bo'ladi (disproporsionirlash reaksiyasi):



IZOBUTANNI SULFAT KISLOTALI ALKILLASH

Benzinlarni yuqori oktanli izokomponentlarini olish uchun izobutanni butilen va propilen bilan alkillash jarayonining maqsadi maxsulotni izoparafinlardan to'liq tashkil topgan alkilat yuqori oktan soniga ega (90....95) sifatli maxsulot olishdir

Alkilatning asosiy konponenti izoaktanni(2. 2. 4 trimetilpentan) qabul qilingan 100 dan yuqori oktan soniga ega bu etalon hisoblanadi.

1932 yili V.M Ipativ izobutanni olifenlar bilan uzoro tasirini inert tasirini ishqorni borligini ko'satadi .Katalizator sifatida dastavval AlCl qo'llanilgan edi.So'ngra sulfat kislotali va ftoritkislotali qo'llanila boshlandi. Birinchi sanoat sulfat kislotali qurilmasi AQSH da 1938 yili foydalanishga kiritildi. Ftorvodorodli 1942 yida, avval maqsadli maxsulot aviabenzin konponenti edi, faqat urushdan so'ng katalitik kriking gazlari bazasida alkillashni tovar aviabenzinlarining motor sifatini yaxshilash uchun qo'lay boshladi.

Sulfat kislotali alkillashni birinchi marta mahalliy qurulmasi 1942-yili Grozniy neftni qayta ishlash zavodida qo'llanila boshlandi

JARAYON TEHNOLOGIYASI

Neftni qayta ishlashda C- alkillash ko'pincha izobutan uchraydi va kam holda izometan ham alkillanadi.Jarayonning ko'satgichiga alkillar tarkibi tasir ko'satadi Etilen izobutanni umuman alkillamay lekin sulfatlanadi va polimerlanadi. Propilen izobutan bilan oson reaksiyaga kirishadi, lekin oktan soni butilenlar bilan alkillanishdagiga qaraganda kichik.Yuqori alkinlar (C5- dan yuqori bo'lgan) pastmalikulalar va past oktanli mahsulotlar hosil qilib destruktiv alkillash reaksiyalariga moyil. Neftni qaytaishlashda alkin hom ashyosi sifatida odatda butan va butilen fraksiyalarini propan –propilenli aralashmasini qo'llashadi , uning tarkibida propilen 50% jami alkillar yig'indisidan.

Normal ko'rinishdagi alkillar C3-C5 alkillash reaksiyasiga kirishmaydi va enert aralashmalar hisoblanadi .

Hom ashyoni tarkibidagi dienlar sulfat kislotasi bilan o'zaro tasirga kirishib murakkab mahsulot hosil qiladi va kislotali fazada qolishadi va kislotani

aralashtirib , bu esa sarfni oshiradi. Shuning uchun dien uglivodorodlari hom ashyo tarkibida bulish kerak emas .C-alkillash hom ashyosiga tarkibidagi namlik va oltigugurt birikmalari bo'yicha qat'iy talablar qo'yiladi . Agar katalitik kreking hom ashyosi dastlabki gidrotozalashdan o'tmagan bo'lsa u holda krekingni butan va butelin fraksiyasi C – alkillash hom ashyosini odatda ishqor yoki „Merons’’ tipidagi jarayonlarda oltingugurtli birikmalardan tozalanadi . Oltingugurtli C – alkillash jarayonini boshqarish asoslari bu muhim texnologik ko'satgichlar bo'lib matirial balans va maxsulot sifatiga tasir etadi . Aminlarga bosim , harorat , hom ashyo hajmiy tezligi , kislota konsentratsiyasi, izobutan , olifen , kislota , xom ashyo va katalizatorlar bilan xom ahyoning aralashtirish tezligi hisoblanadi Bosim oltingugurtli sugakfazali C-91alkillashda bosimni o'zgarishi jarayonga tasir ro'satmaydi . Bosim uglivodorod xom ashyoni bug'ini mustahkamligini biroz oshirishi kerak , kataliz haroratida odatda reaktordagi sovutish sestemasi izobutanna butelin C-alkillab bosimni 0,35 – 0,42MPa da ushlab turishadi ,

Agar xom ashyo tarkibida prapan va propilin fraksiyasi saqlasa agar u holda reaktordagi bosim ko'tariladi .

Harorat . Haroratni oshoirishda uglivodorod va kislotalarni qovushqoligi pasayadi va ularning aralashtirish va disperslash uchun qulay sharoit yaratiladi .Bu esa uglivodorolarni kislotalar bilan sorbsiyasini tezligini oshtiradi , demak o'tayotgan o'tayotgan barcha reaksiya tezligini oshiradi .Katalizator nisbati hom ashyo bilan optimal chegarada bo'lishi kerak , unda yuqori sifatli alkilat maksimal chiqishga erishiladi . Bu munosabatning 1,5 tashkil qiladi .Hom ashyoning hajmiy tezligi hom ashyoning vaqt birligi ichida o'zgarayotgan munosabatida ifodalanadi , natijalariga tasiri reaktor konstruksiyasiga bog'liq jarayon diffuzion bo'lish uchun uning aralashtirish qurulmasi effktivliligiga ham bog'liq . Agar aralashtirish yetarli samaradorlik bermasa , u holda uglivodorod hom ashyosi bilan kislotalar massasi barchasi kontakshadi .Tajribada tasdiqlangan;boshqa texnologik parametrlarni optimal qiymatlarda hom ashyoni reaktorda bo'lish muddati 200.....1200 bu esa olifenlarni hajmiy uzatish tezligiga xos .barcha reaksiyalar tezligini oshiradi Bu xom ashyoning aralashtirishga sarflanadigan enirgiyani

kamaytiradi bu esa jarayonning iqsodiy samaradorligini oshiradi. Lekin haroratning 15°C dan oshishi destruktiv alkilashdagi oraliq reaksiyalar .katta miqdorda intifikatsiyalanadi asosiy reaksiyaga nisbatan . Bunda kam tarqalgan alkilarni miqdori ortadi C-alkilash reaksiyasini tasirchanligi pasayadi kislota sarfi ortadi va alkilat sifati yomonlashadi .Aniq bir chegarada harorat pasayishi reaksiya samaradorligiga yaxshi tasir etadi , alkilat chiqishi va sifati ham yaxshilanadi.Reaksiya harorati pasayishi alkilash omili kislota ning yopishqoqligini juda ortishi hisoblanadi , bu esa emulsiyali fazalar bo'lishi yuzasini yuqoriligini tashkil etishda kiyinchilik keltiradi . Izobutanni butilenlar bilan C –alkilashda optimal harorat intervali $5...13^{\circ}\text{C}$ ni propanda esa $-10...-22^{\circ}\text{C}$ ga teng

Izobutanni nisbati C-alkilashning muhim parametrlaridan biri olifen hisoblanadi .Izobutanlarni ortiqcha bo'lishi maqsadi reaksiyani intinseferlashda va C-alkilash oraliq reaksiyalarini kamaytiradi . Bu nisbatni juda ham ortiqcha kapital va eksplatatsion sarflarni oshiradi , shuning uchun uni 10:1 dan oshganda ushlab turish norentabldir .

Sulfat kislota ning tasiri kislota konsentratsiyasi butan va butilenli uglivodorodlarni C_alkilash uchun odatda sulfat kislota si qo'llaniladi , uning tarkibida 88%dan 98% gacha monogidrat bor .Uning konsentratsiyasini jarayo ichida pasayishi yuqori molikulalar polimir birikmalar va suv hisobiga bo'lib o'tadi sestimaga xom ashyo bilan tushadi .Agar kislota konsentratsiyasi 88%dan past bo'lsa alkilat sifati yomonlashishiga olib keluvchi salbiy reaksiyalarni kuchaytiradi. Propilen bilan C-alkilashda 100....101%li konsentratsiyadagi kislota ni qo'llash ma'qul .Sulfat kislota ni suv bilan aralashishi katalizatorning faolligini jadal pasaytiradi yuqori molikulyar birikmalar aralashmasiga qaraganda .Shu sababli hom ashyoning yaxshilab quritish tafsia etiladi. Sulfat kislota nisbati hom ashyo katalizator konsentratsiyasini tafsivlaydi va hom ashyo reaksiya aralashmada.C-alkilash jarayonining tezligi harakatdagi yuza qonuni asosan C-alkilash jarayoni tezligi fazalar chegarasi ajralishida uglivodorod va kislota konsentratsiyalari xossalari dan funksiya sifatida namayon bo'ladi .Katalizator

nisbati xom ashyo optimal chegarada bo'lishi kerak unda yuqori sifatli alkilat chiqishiga erishiladi .Bu munosabatning optimal qiymati 1,5ni tashkil etadi. Xom ashyoning hajmiy tezligi xom ashyoning vaqt birligi ichida o'tayotgan munosabatida ifodalanadi reaktordagi katalizator hajmiga . Bu parametrlarning C – alkillash natijalariga ta'siri reaktor konstruksiyasiga bog'liq .

Sanoatda alkillash jarayonida kislotali katalizatorlar orasida sulfat va ftorid kislota qo'llaniladi.Suyuq fazali katalizator eng muhimi kislota ko'rsatgichi bo'lib , ularda izobutan va olifenlarni erishi hisoblanadi . Izobutanni sulfat kislotalar eruvchanligi katta emas va taxminan 30 marta ftorid kislotalariga qaraganda past . Bu kislotalarda olifinlar yaxshi va tez eriydi Shu sababli fazalar bo'linishi yuzasida izobutan konsentratsiyasi olifinlar konsimtratsiyasiga qaraganda kichik bu esa olifinlar polimirizatsiya reaksiyasi o'tishi ehtimolini belgilaydi .Bu holat zichlik yuqori paytlarda kislotalar tuzilish reaktalitlar massa kuchini limitlash bosqichida diffusion sohasida C-alkillash reaksiyasi o'tadi .

Elektr uskunalarning nosozligi yoki ularning ishlatish qoida talablariga amal qilmaslik ishchi-xizmatchilarni shikastlanishiga olib keladi. Insonlarni elektr toki ta'sirida shikastlanishdan himoya qilish uchun ishlab chiqarish sharoitlarida tokdan havfsiz usti qoplangan simlar, erga ulangan va neytrallovchi ximoya tizimlaridan foydalanilgan. SHuningdek, elektr uskunalarini tanlash, o'rnatishda mavjud bo'lgan qonun-qoidalar normalariga amal qilingan.

Ishchilar va xizmatchilarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash.

Ta'sir etuvchi zaharli gaz va chang bilan ishlovchi sexlarda ishchi va xizmatchilar obyekt mehnat muhofazasi bo'limi xodimlari tomonidan shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanganlar.

Nafas olish organlari shaxsiy himoya vositalari nafas olish organlarini turli kasalliklarni keltirib chiqariuvchi mikroblardan va toksinlardan muhofaza qiladi.

Gazniqoblar ikki turga bo'linadi:

Filtirlovchi gazniqoblar (GP 5, GP 7, GP 9, PDF 2SH);

Ajratuvchi gazniqoblar (IP 46 IP 48).

Nafas olish organlarining eng oddiy himoya vositalari:

Respirator;

CHangga qarshi matoli niqoblar;

Paxta dokali bog'gich.

“Farg‘ona neftni qayta ishlash” korxonasida SNIP- 2.08.12.98 ga asosan ishchi-xizmatchilar uchun dam olish, ovqatlanish, uy va ish kiyimlarini saqlash xonasi, zararsizlantirish, yuvish-yuvinish va boshqa madaniy-sanitariya xizmatlari uchun mo‘ljallangan qo‘shimcha binolar qurilgan.

Korxonada yong‘in va portlash xavfsizligi, ularni rejalashtirish, tashkillashtirish va olib borish SNIP-2.01.02-04 ga asosan “YOng‘in xavfsizligi” Umumiy talablariga ONTP 24/86 ga asosan “Portlash havfi” umumiy talablarga va ushbu qoidalarga muvofiq ta‘minlangan. Ishlab chiqarishda o‘rganilmagan yong‘in va portlash havfi va toksik xususiyatlariga ega bo‘lgan modda va materiallar qo‘llanilmaydi.

Korxona binolarining yong‘in havfsizligi ularning o‘tga chilamlilik darajasi bilan aniqlangan. SNIP 2.09.12-98ga asosan qurilish materiallari bo‘yicha yonmaydigan, qiyin yonadigan materiallardan foydalanilgan.

YOng‘in yoki avariya sodir bo‘lishida odamlarni xavfsiz boshqa joyga chiqish yo‘llari bo‘lishi binolarni loyihalashda, qurishda hisobga olingan. YOng‘in havfsizligi norma qodalariga asosan evakuatsiya yo‘llari o‘tga chidamli materiallardan tayyorlangan, chiqish harakat yo‘lida hech qanday to‘siqlar yo‘q. Korxona binosida 2ta chiqish evakuatsiya yo‘llari mavjud.

Barcha ishlab chiqarish sexlarida, xom ashyo va tayyor maxsulot omborxonalari ma‘muriy va boshqa yordamchi binolar hamda inshootlar dastlabki yong‘inni o‘chirish vositalari bilan ta‘minlangan.

Ventilyasiya tizimi yong‘indan darak beruvchi signalizatsiya bilan birlashtirilgan (SNIP 2.04.02 84., GOST 12.2.2002.89, SNiP 2.04.09.07) bo‘yicha o‘rnatilgan.

Bino va yong‘in suv ma‘nbalari yo‘lkalari hamda yong‘in vositalari va uskunalariga boradigan yo‘lkalar doimo bo‘sh bo‘lishi, binolar oralig‘idagi yong‘inga qarshi masofa tuzulmalarida materiallar uskunalar bo‘sh idishlar taxlashga ruxsat etilmagan.

Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodida yong‘inga qarshi suv ta‘minoti SNIP-2.04.02.86 ga asosan belgilangan. Katta miqdorda suv saqlaydigan suv havzasi mavjud.

O‘t o‘chirish birlamchi vositalariga xarakatlanadigan qo‘lda ishlatiladigan o‘t o‘chirgichlar, gidropulplar, chelak, suvli bochka, belkurak, qumli yashik, asbest yopgich, namat va boshqa yonmaydigan buyumlar kiradi.

YOng‘in haqida tez xabar berish uchun yuqori havfli hisoblangan texnologik uskunalarda, ishlab chiqarish binolarida, omborlarda darakchi vositalari SNIP-2.04.02-84, GOST 12.2.2002.89 ga asosan o‘rnatilgan. Bu vositalar yonayotgan manba, joyni o‘z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

“Farg‘ona neftni qayta ishlash” korxonasida ko‘ngilli o‘t o‘chirish drujinasi tashkil qilingan. Ko‘ngilli yong‘in drujinasining vazifasi ish joylarida yong‘inga qarshi mavjud bo‘lgan qonun-qoidalarga amal qilib ish yuritishni talab qiladi, hamda xodimlar o‘rtasida instruktaj o‘tkazadi, imtihon qabul qiladi.

Atmosfera elektrini neytrallash uchun mo‘ljallangan tadbirlar tizimi ximoya moslamalari kompleksiga «yashindan ximoyalash» deyiladi. Binolarni, inshootlarni yashin urishdan saklaydigan moslamani «yashinqaytargich» deb aytiladi. U yashinni qabul qiluvchi, tokni uzatuvchi va erga ulovchi vositadan tashkil topadi. Yashinni er ustida joylashgan inshootlarga ta‘siri ikki xil bo‘ladi. Yashinni er ustidagi inshoot, qurilmalarga to‘g‘ri urilishi uni buzilishiga, yonuvchi modda va materiallarni alangalanishiga olib keladi. Yashinni ikkilamchi ta‘siri himoyalovchi bino va inshootlarni metall konturiga yashin urilish vaqtida zaryadlarni elektrostatik va elektromagnitli induksiyanish bilan boradi. “Buxoro neftni qayta ishlash” korxonasida yashinni birlamchi va ikkilamchi ta‘siridan mumkin bo‘ladigan yonish, portlash, buzilish xodislarini oldini olish maksadida SNIP-2.01.03-96, SNIP-2.01.02-85 ga asosan muxim tadbir choralar ko‘rilgan.

FUQORO MUHOFAZASI


Fargʻona neftni qayta ishlash zavodi Fargʻona viloyatining Kergeli shaharchasida joylashgan. Zavod 1956 yilda ishga tushirilgan boʻlib, neft xomashyosini qayta ishlashga moʻljallangan.

Zavod quyidagi maxsulotlarni ishlab chiqaradi:

- Turli rusumdagi avtobenzinlar;
- Aviatsiya kerosini;
- Dizel yoqilgʻisi
- Mazut yoqilgʻisi
- Suyultirilgan gaz.

Fargʻona neftni qayta ishlash zavodi joylashgan xududda chang-toʻzon, shamollar taxlikali vaziyatlarni vujudga keltiradi. Obyektda Fuqoro muxofazasining tashkil etilganligi. Biz koʻrib chiqayotgan obyektida turli xildagi zaxarli gazlar va tez alangalanuvchan moddalar mavjud. SHuning uchun obyektida fuqorolarni, yaʼni ishchilarni favqulotda vaziyatlardan ximoyalash uchun fuqoro muxofazasi shtabi tashkil qilingan. Bu shtabning vazifasi, obyektни xavfli deb xisoblangan nuqtalarini kuzatish va nazorat qilishdan iborat.

FM ni tashkil etish sxemasi



Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulotda vaziyatlar.

Korxona teritoriyasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavfli xodisalarga: zilzila, yong‘in, portlash, kimyoviy zaharlanish kiradi.

Obyektda chang va zaharli gazlar mavjudligi, ularning miqdori, saqlanish qoidalari deganda asosan atrof muhitga kuchli ta‘sir qiluvchi va odamlar hayotiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar xisoblanadi. Korxonadagi avariya, yong‘in va portlashlar kabi favqulotda vaziyatlar xavfi tug‘ilganda va sodir bo‘lganda ularning xavf darajasini ko‘rsatadigan ikkita bildirish rejimi belgilanadi:

- Yuqori tayyorgarlik rejimi
- Favqulotda rejim

Bunday xollarning hammasida xokimiyatlarga, tuzilmalarga, tibbiy xizmatga, yong‘in xavsizligi xizmatiga xabar berish kerak.

Tez alangalanuvchan yoki boshqa yong‘in xavflari yuqori bo‘lgan modda va materiallardan foydalanishni, saqlash, texnologik jarayonlarni noto‘g‘ri olib borish orqali avariya yong‘in xodisalari bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, gaz va suv quvurlarining ishdan chiqishi, germetikligining yo‘qolishi sababli xam favqulotda vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi uchun xom ashyo neft, gaz kondensati hisoblanadi. Gaz kondensatining kimyoviy tarkibi neftning kimyoviy tarkibiga o‘xshash bo‘lib, faqat qaynash temperaturasining oxiri bilan farqlanadi va gaz kondensati neftga qaraganda birmuncha engil hisoblanadi. SHu sababli gaz kondensati va neftlar bir xil qurilmalarda qayta ishlanadi. Hosil bo‘ladigan tutun gazlar xayot uchun xavfli miqdorda bo‘ladi. SHu sababli korxonada ish vaqtida xonalar yaxshi shamollatilgan bo‘lishi kerak.

Ta‘sir etuvchi zaharli modda va chang bilan ishlovchi sexlarda ishchi va xizmatchilar ob‘ekt fuqoro muhofazasi bo‘limi (FM shtab) xodimlari tomonidan shaxsiy ximoya vositalari bilan ta‘minlangan bo‘lishlari kerak.

Nafas olish organlari shaxsiy ximoya vositalari nafas olish organlarini turli kasalliklarni keltirib chiqariuvchi mikroblardan va toksinlardan muhofaza qiladi.

Gazniqoblar ikki turga bo'linadi:

Filtirlovchi gazniqolar (GP 5, GP 7, GP 9, PDF 2SH);

Ajratuvchi gazniqoblar (IP 46 IP 48).

Nafas olish organlarning eng oddiy himoya vositalari:

- 1.Respirator;
- 2.CHangga qarshi matoli niqoblar;
- 3.Paxta dokali bog'gich.
- 4.Teri va nafas olish a'zolarinig himoya qilish vositalari.
- 5.Filtirlovchi himoyalanish niqoblar.

Inson bir kun davomida o'rtacha hisobida 800 gr qattiq maxsulot, 2l suv va 40m³ havo iste'mol qiladi. Bajarilayotgan ishning og'irligi va intensivligiga bog'liq holda bu ko'rsatgich keng ko'lamda o'zgaradi.

Favqulotda vaziyatda avariya qutqaruv ishlarini olib borish.

Avariya qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarini rejalashtirish va amalga oshirishdan maqsad, aholini turli favqulotda vaziyatlardan himoyalash, shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatish, avariya oqibatlarini qisqartirish hamda vayronalardan insonlarni olib chiqishga qaratilgandir.

Avariya qutqaruv ishlari quyidagi vazifalar orqali olib boriladi.

-FV xududlarida razvedka ishlarini olib borish hamda harakatlanish yo'nalishlarini rejalashtirish.

-Bino qismlari, vayrona uyumlari orasidan shuningdek yonayotgan binolar ichidan insonlarni qidirish va olib chiqish.

-Jabirlangan guruxlarga ajratgan holda birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish hamda yaqin ambulatoriyalarga etkazish.

Boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishga quydagilar kiradi:

Insonlarni ommaviy piyoda yoki transportda haxarakatlanish yo'llarini ochish hamda xavfli jisimlardan tozalash.

Gaz, elektr, suv quvur tiqinlari va boshqa tizimlarda yuz bergan avariyalarni to'xtatish, qutqaruv ishlarini o'tkazish.

Korxonada yong'in sodir bo'lganda harakatlanish quydagi tartibda amalga oshiriladi. Sexda jihozlar germetikligi buzilib yoki boshqa sabab bilan yong'in chiqqanda OPD rusumli signalizator ishga tushadi. Bu signalizator ishga tushishi bilan sexdagi navbatchi korxonaning yong'in havfsizligi bo'limiga xabar beriladi va ishchilarning tartibli evakuatsiyasi ta'minlanishi nazorat qilinadi. YONG'in havfsizligi bo'limi etib kelguncha ishchilar o'zlari OU 2, OU 9, OU 8 yong'in o'chirgichlari bilan yong'inni boshqa ob'ektga o'tib ketmasligini oldini olib, nazorat qiladi.

Yong'in xizmat xodimlari bilan bir vaqtda tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati ham etib keladi. FV oqibatlari tugatilishi bilan qutqaruv ishlari boshlanadi. Tartibni saqlashga e'tibor beriladi. Yong'in yoki avariya sodir bo'lishida odamlarni xavfsiz boshqa joyga chiqish yo'llari bo'lishi binolarni loyihalashda, qurishda hisobga olingan. Yong'in havfsizligi norma qodalariga asosan evakuatsiya yo'llari o'tga chidamli materiallardan tayyorlangan, harakat yo'lida hech qanday to'siqlar yo'q. Korxona binosida 2ta chiqish evakuatsiya yo'llari mavjud.

Korxonada ishlatiladigan xom-ashyolar ma'lum talab asosida omborlarda saqlanadi. Quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri tushmaydigan, yopiq, quruq joyda saqlanadi. Harorat 30⁰S dan yuqori bo'lmasligi, namlik 80% dan ko'p bo'lmasligi shart.

IQTISODIY QISM

ISHLAB CHIQUARISH DASTURI - MAHSULOTNING YILLIK ISHLAB CHIQUARISH HAJMI (NATURAL VA QIYMAT IFODASIDA)

№	Mahsulot nomi	O'lcham	Bir o'lcham narxi sum	Natural ifodasi	Qiymat ifodasi n.so'm.
1	2	3	4	5	6
1	Butan va butilen fraksiyasidagi izobutanni sulfat kislotali alkillash texnologiyasi.Netralizatorni hisoblash xisoblang N=38000t/y(xomashyo)	t	1360000	380000	51680000
	Jami				

Ushbu jadvalda loyixa bo'yicha ishlab chiqarishga rejalashtirilgan mahsulot turi, uning o'lchami, natural ifodadagi va qiymati bo'yicha mahsulotning hajmi va 1 o'lcham mahsulotning sotiladigan narxi qayd etiladi.

Hisob tartibi:

5 grafada loyixa bo'yicha mahsulotning 1 yillik hajmi qayd etiladi.

6 grafa = 4 grafa x 5 grafaga.

1. Korxona i/ch sarflari va ularning guruxlanishi

Umumiy ko'rinishda ishlab chiqarish sarf xarajatlar (maxsulot, ishlar, xizmatlar tannarxi) ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan tabiiy resurslar, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, quvvat, asosiy fondlar, mexnat resurslari, xamda

ishlab chiqarish va maxsulotni sotishga sarflangan boshqa qolgan xarajatlarning qiymatlarni aks ettiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 27.01.1995 yil №9, 5.02.1999 yili № 54 karori bilan takomillashtirilgan "Maxsulot tannarxi (ishlar, xizmatlar) ni tashkil qiluvchi sarflar tarkibi va maxsulot (ishlar, xizmatlar) ni sotish, moliya natijalarni kelib chiqish tartibi" to'g'risidagi yangi lo'riqnoma qabul qilingan.

Ushbu Yo'riqnoma bo'yicha xamma sarflar maxsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan va ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan (ammo ular davr xarajatlar tarkibida qayd etilib, asosiy faoliyat foydasida inobatga olinadilar) xarajatlarga bo'linadilar:

- Bundan tashkari sarflar korxona umumxo'jalik faoliyatining foyda yoki zarari xisobida inobatga olinadigan moliya faoliyati bo'yicha xarajatlar;
- Favqulotdagi zararalar (foyda yoki daromadini soliq to'laguncha qadar xisobida inobatga olingan) dan iborat.

SHunga ko'ra sarf moddalarining guruxlanishi quyidagicha bo'ladi:

1. Maxsulotning ishlab chiqarish tannarxi;
2. Davr xarajatlari;
3. Moliya faoliyati xarajatlari;
4. Favqulotdagi zararlar.

2.Maxsulot tannarxiga kiritiladigan sarf xarajatlar tarkibi

a) **maxsulot tannarxining iqtisodiy mazmuni;** Maxsulot tannarxi asosiy sifat ko'rsatkichi bo'lib, unda korxonalarning xo'jalik faoliyatlaridagi xamma nuqson va muvaffaqiyatlari ifodalanadi, mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga ketgan sarf-xarajatlarning pul ifodadagi yig'indisidir. Maxsulot ishlab chiqarish va sotishga ketgan sarflar qanchalik kam bulsa, shunchalik ishlab chiqarishning samaradorligi oshadi.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarning puldagi ifodasi esa mahsulot ishlab chiqarish tannarxi deb ataladi.

Tannarx – maxsulot qiymatining asosiy qismini tashkil etib, uni baxosini belgilashda asos xisoblanadi. SHuning uchun maxsulot tannarxini kamayishi amalda uni narxini pasayishini ta'minlaydi va foydani ko'payishida manba xisoblanadi.

Foyda va maxsulot tannarxining ahamiyati ayniqsa bozor munosabatlari sharoitida oshib ketdi, chunki foyda korxona faoliyatining asosiy manbaasini tashkil etadi.

b) sarf xarajatlarning kalkutsion moddalari va iqtisodiy elementlar bo'yicha guruxlanishi; Sarflar va xarajatlar shakllanish boshqaruvida xarajatlar turini inobatga olgan sarflar tasnifi muxim ahamiyatga ega va u kalkutsiya moddalari xamda sarflar elementlari bo'yicha ko'riladi.

Xarajatlarning kalkutsiya moddalari bo'yicha guruxlanishi ushbu xarajatlarni xosil bo'lgan o'rni (joy) ni aks ettiradi va bir tur yoki bir o'lcham maxsulot ishlab chiqarish uchun ketgan sarflarni rejalash, xisobga olish va aniqlashda qo'llaniladi.

Xarajatlarning sarf elementlari bo'yicha guruxlanishi esa xarajatlar qayorda va qaysi maqsadlarga safrlanishidan qat'iy nazar ishlab chiqarishga ketgan sarflar smetasini tuzishda qo'llaniladi. Ushbu smeta korxona ishlab chiqaradigan xamma maxsulotining xajmiga ketgan sarflarni aniqlaydi.

Maxsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar iqtisodiy mazmundorligiga binoan quyidagi elementlar bo'yicha guruxlanadilar:

- ishlab chiqarish moddiy sarf xarajatlar (qayta ishlanadigan chiqindilar qiymati ayrilgan xolda);
- ishlab chiqarish xarakteriga ega mexnat haqi sarf xarajatlar;
- ishlab chiqarishga taaluqli ijtimoiy sug'urta ajratmalar;
- asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi;
- boshqa ishlab chiqarish xarajatlar.

Maxsulotning ishlab chiqarish tannarxi

Maxsulotning ishlab chiqarish tannarxiga uni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi va ular quyidagilardan iborat:

1. To'g'ri va yondosh moddiy xarajatlar;
2. Mexnatga doir sarflangan to'g'ri va yondosh xarajatlar;
3. Qolgan ishlab chiqarishga taaluqli xarajatlar (shu jumladan ustama xarajatlar).

Ishlab chiqarish moddiy sarflar tarkibi:

1.1. CHetdan keltirilgan (sotib olingan), maxsulot tarkibida asosini xosil qiluvchi yoki maxsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) da zarur tarkibiy qism hisoblangan xom ashyo va materiallar.

1.2. Sotib olingan materiallar – ishlab chiqarish jarayonida uni normal xolatda o'tishini ta'minlovchi va maxsulotni o'rab-chirmablash uchun mo'ljallangan, yoki boshqa ishlab chiqarish maqsadlarda ishlatiladigan materiallar (sinovlar o'tkazish, nazorat qilish, asosiy fondlarni ta'mir va ekspluatatsiyasi uchun), ta'mirlash uchun zarur bo'lgan zaxira qismlari, instrument, inventar, moslamalar emirilishi, maxsus kiyim-boshni emirilishi va shunga o'xshash mexnat vositalar (asosiy fondlar tarkibiga kirmagan) boshqa arzon baho ashyolarning emirilishi.

1.3. Sotib olingan yarim fabrikat va komplektlash buyumlari (shu korxonada qo'shimcha ishlov yoki montajga mo'ljallangan).

1.4. Tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan, faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan, lekin ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega ishlar va xizmatlar – boshqa chet korxona, xo'jaliklar yoki asosiy faoliyatiga kirmagan korxonaning xo'jaliklari bajaradigan ishlar (maxsulot ishlab chiqarish uchun maxsus aloxida operatsiyalarni amalga oshirish, xom ashyo va materiallarga ishlov o'tkazish, chet korxonalarning yuk tashish uchun transport xizmatlar va x.k.).

1.5. CHetdan sotib olingan yoqilg'i – texnologik jarayonlarda, turli xil quvvatlar ishlab chiqarish uchun, binolarni isitish, ishlab chiqarishni transport xizmat bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan turli yoqilg'ilar;

1.6.Sotib olingan turli xil quvvatlar – texnologik, transport va boshqa xo‘jalik ehtiyojlarga sarflanadigan quvvatlar.

1.7.Moddiy resurslarning tabiiy yo‘qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo‘qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi. Norma chegarasidan oshmay tabiiy qurishi va sababli kamomad va aynishi natijasida yo‘qotmalar.

1.8.Moddiy resurslar qiymatiga yana korxonalarning moddiy resurslar bilan ta‘minlovchilar tomonidan keltirilgan tara va o‘rash materiallari uchun sarf xarajatlari xam kiradi.

1.9. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog‘liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari), ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to‘lash xarajatlari)

1.10. Moddiy sarflardan qayta ishlanadigan chiqindilar qiymati ayriladi – maxsulot ishlab chiqarish jarayonida butunlay yoki qisman iste‘mol sifatini yo‘qotgan xom ashyo, materiallarning qoldiqlari.

2. Ishlab chiqarishga taaluqli mexnat haqlari uchun sarflar - korxonada qabul etilgan mexnat haqi tizimiga binoan ishbay rassenka, tarif stavka va okladlar asosida xaqiqatdan bajarilgan ish uchun xisoblangan ish haqlari. Bunga yana mukofotlar, rag‘batlantirish va kompensatsion to‘lovlar, shtatida bo‘lmagan, ammo korxonaning asosiy faoliyatiga jalb qilingan xodimlar ish haqlari kiradi.

1.3. Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha sarflar – belgilangan normalarga binoan ijtimoiy Davlat sug‘urta idoralar Nafaqa fondi, Davlat va tibbiy fondiga xodimlar mexnat haqlaridan foiz xisobida majburiy to‘lovlar.

1.4. Asosiy fondlar va ishlab chikarish axamiyatiga ega bulgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi. Bu modda tarkibiga asosiy fondlarning balans qiymati va belgilangan normalar asosida ularning to‘la qayta tiklashga mo‘ljallangan amortizatsiya ajratmalari kiradi (shu jumladan qonunga binoan fondlar aktiv qismining tezlashtirilgan amortizatsiyasi).

Korxonaning nomoddiy aktivlar tarkibida er, suv, boshqa tabiiy resurslar, sanoat va intellektual (akliy) mulq ob'ektlar (patent, litsenziya) ga ega bo'lgan haqlar aks etadi.

Nomoddiy aktivlar emirilishi ularning boshlang'ich qiymati va foydali xizmat davriga binoan xar oy maxsulot tannarxiga o'tkaziladi. Foydali xizmat davri aniqlanmagan nomoddiy aktivlar uchun emirilish normasi 5 yilga belgilanadi (foydali xizmat davr korxonaning faoliyat davridan oshmasligi shart).

1.5. Boshqa ishlab chiqarish sarflari – bularga oldin qayd etilgan moddalarga kirmagan sarflar kiradi – soliqlar, to'lovlar, maxsus fondlarga to'lanadigan ajratmalar, kreditlar bo'yicha to'lovlar (belgilangan stavkalar, chegarasida), komandirovkalar bo'yicha xarajatlar, aloqa xizmati va boshqa ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash bo'yicha sarflar kiradi.

Mahsulot tannarxiga qo'shilish usuliga qarab ishlab chiqarish xarajatlari 2 guruxga bo'linadi:

- 1. Bevosita (tug'ri) xarajatlar.**
- 2. Yondosh (yondosh) xarajatlar.**

Bevosita (to'g'ri) xarajatlar deb tegishli kalkulyasiya ob'ektining tannarxiga to'ppa-to'g'ri, ya'ni bevosita o'tkaziladigan xarajatlarga aytiladi. Masalan, texnologik maqsadda sarflangan xom ashyo va asosiy materiallar, ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarning asosiy ish haqi va hokazo.

Yondosh xarajatlar bir necha xil mahsulotni tayyorlash bilan bog'liq (energiya, suv, bug' va hokazolar sarfi), shuning uchun ular mazkur mahsulot turlari o'rtasida taqsimotning aniq bazalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotning miqdoriga bog'liqligiga qarab xarajatlar ikki guruhga bo'linadi:

- 1. O'zgaruvchan.**
- 2. SHartli- o'zgarmaydigan.**

Ishlab chikarayotgan mahsulot miqdorining ko'payishi yoki kamayishiga qarab o'zgaradigan (ular ham ko'payadi yoki kamayadi) xarajatlar **o'zgaruvchan** deyiladi. Bularga xom ashyo, materiallar, texnologik maqsadda ishlatiladigan

yoqilg'i va elektroenergiya, ishchilarning ish haqi (qisman), asbob-uskunalarini saqlash va foydalanish xarajatlari kiradi.

Mahsulot miqdorining o'zgarishi ta'sir etmaydigan xarajatlar **shartli-o'zgarmaydigan** xarajatlar deb ataladi. Bularga umumishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar tarkibida xam mahsulot miqdorining ko'payishi yoki kamayishiga qarab har xil sanoat tarmoqlarida har xil darajada o'zgaradigan xarajatlar bo'lishi mumkin. Lekin bunday xarajatlar umumsex xarajatlari ichida kam salmoqqa ega yoki ularning o'zgarishi uncha sezilarli emas. SHuning uchun ular shartli-o'zgarmaydigan xarajatlar deb nomlangan.

SHartli- o'zgarmaydigan xarajatlar mutlaq miqdor bo'yicha nisbatan o'zgarmay qolsada, ishlab chiqarish o'sganda tannarxni pasaytirishning muhim omiliga aylanadi, chunki bunda ularning mahsulot birligiga to'g'ri keladigan miqdori kamayadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga qarab bir turdagi (o'xshash) va har xil turdagi (kompleks) xarajatlarga bo'linadi. Bir turdagi xarajatlarga xom ashyo va materiallar, ish haqi, yoqilg'i va energiya xarajatlari kiradi. Kompleks sarflar tarkibida har xil turdagi xarajatlar yig'iladi. Masalan, umumishlab chiqarish xarajatlari, ish haqi, yoqilg'i, amortizatsiya va hokazo sarflar kiradi.

Ishlab chikarish tannarxiga kiritilgan sarflar maxsulot imlab chikarish kalkulyasiyasi va ishlab chikarish smetasida aks ettiriladi. Maxsulot imlab chikarish kalkulyasiyasida sarflar moddalar buyicha guruxlanib bir ulcham yoki bir tur maxsulot ishlab chikarishga ketgan xarajatlarini ifodalab kuyidagilardan iborat:

1. To'g'ri moddiy sarflar.
2. Mexnatga doir tugri sarflar:
 - a) i/ch ishchilarning ish haqi
 - b) ijtimoiy sugurta ajratmasi
3. Materiallarga doir yondosh sarflar.
4. Mexnatga doir yondosh sarflar.
5. Asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.
6. Boshka, shu jumladan ustama xarajatlar.

Tugri moddiy sarflar kup xollarda kalkulyasiyadan keyin aloxida jadvalda ochiladi va kuyidagi sarflardan tashkil topadi:

1. xom ashyo va asosiy materiallar – maxsulot tarkibiga kiradigan komponentlar.

2. Yordamchi materiallar – maxsulot tarkibiga kirmagan, ammo uni xosil bulishida ishtirok etgan (katalizator, reagent va xokazo).

3. Kayta ishlanadigan chikindi (ayriladi).

4. Yoqilg'i va kuvvat sarflari.

Umum xujalik buyicha maxsulot ishlab chikarishga ketgan sarflar esa iqtisodiy elementlar buyicha guruxlanib kuyidagilardan iborat:

1. xom ashyo va asosiy materiallar.

2. Yordamchi materiallar.

3. Yoqilg'i.

4. Quvvat sarflari.

5. xodimlarning ish haqlari.

6. Ijtimoiy sug'urta ajratmasi.

7. Asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

8. Boshka sarflar.

5.Davr xarajatlari, moliya faoliyati buyicha sarflar va favqulotdagi zararlar

Davr xarajatlari — xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Yo'riqnomaga binoan joriy etilgan korxonaning xarajatlar xisobi tizimida nisbatan yang'i ko'rsatkich. Bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar davr xarajatlari toifasiga kiritiladi. Ushbu xarajatlarga boshqaruv, tijorat xarajatlari, umumxo'jalik maqsadidagi boshqa xarajatlar, shu jumladan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlari kiradi.

Ushbu xarajatlar korxonaning mahsulot ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'lanmagani, leqin mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotish bo'yicha asosiy faoliyati bilan bovingani uchun ular operatsion xarajatlar, shuningdek umumiy va ma'muriy

xarajatlar deb xam ataladi. Ular ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot yoki tovarlar hajmiga bog'liq emas, aksincha, vaqq, xo'jalik faoliyatining qancha davom etishi bilan ko'proq bogliq.

Ushbu xarajatlar ular paydo bo'lgan xisobot davrida yig'iladi va hisobdan chiqariladi.

Davr xarajatlariga quyidagi xarajatlar kiritiladi:

- mahsulotni sotish xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar, shu jumladan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlari, ishlab chiqarish va boshqaruv tizimini rivojlantirish xarajatlari;

- kelgusida soliq solish bazasiga kiritiladigan hisob davri xarajatlari.

Moliya faoliyati bo'yicha xarajatlar - bularga quyidagilar kiradi:

- Qisqa muddatli bank kreditlari (O'zbekiston Markaziy banki belgilangan xisob stavkalar chegarasida yoki undan yuqori) bo'yicha to'lovlar va ta'minotchilar kreditlari uchun % to'lovlari.

- uzoq muddatli kreditlar bo'yicha to'lovlar;
- uzoq muddatli ijara bo'yicha % to'lovlari;
- chet el valyutalari bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha zarar (ubitok) va salbiy kurs (raznitsa).

- qimmatli qog'ozlar chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar.
- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar.

Favqulotdagi zararlar - Korxona faoliyatida ko'zda tutilmagan xodisa va operatsiyalar natijasida kelib chiqqan gayri tabiiy, kutilmagan xarajatlar.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining kalkulyasiyasi

Yillik ishlab chiqarish xajmi-

Maxsulotning kalkulyasion o'lchami-

	Sarf moddalar	Sarflar	qiymati
		1 o'lcham maxsulot uchun, so'm	Iillik xajmi, m.
	2	3	4
1.	To'g'ri moddiy sarflar	700000	26600000
2.	Mexnatga doir to'g'ri sarflar, shu jumladan:	40000	1520000
a)	Ishlab chiqarish ishchilarining ish xaqi	30400	1155200
b)	Sug'urta ajratmalari (yagona ijtimoiy to'lov -24%)	9600	364800
3.	Materialga doir yondosh sarflar	150000	5700000
4.	Mexnatga doir yondosh sarflar	60000	2880000
5.	Asosiy fondlar amortizatsiyasi	40000	1520000
6.	Boshqa (shu jumladan ustama) sarflar	10000	380000000
	Ishlab chiqarish tannarxi	920000	34960000
	Davr xarajatlari	80000	3040000
	Umumiy tannarx		
	Umumiy sarflar	1000000	38000000
	Foyda	360000	13680000
	Maxsulot rentabelligi, %	36	-
	Korxonaning ulgurji baxosi	1360000	51680000
	Kelishilgan (erkin -sotish) baho, - 20% QQS bilan.	1632000	620160000

ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR HISOBI

№	Ko'rsatkichlar	O'lcham	Loyixa bo'yicha
1	2	3	4
1	Yillik i/ch mahsulot hajmi		
	a) natural ifoda	t	380000
	b) tovar mahsulotining qiymati	so'm	51680000
2	1 o'lcham mahsulotning i/ch tannarxi (ishlab chiqarish sarflari)	So'm/t	920000
3	Yillik mahsulotning tannarxi	so'm	34960000
4	Mahsulotning erkin-sotish baxosi	so'm/t	1632000
5	Yillik foyda	so'm	13680000
6	Mahsulot rentabelligi (samaradorligi %)	%	36
7	Sex boshlig'ining o'rtacha- oylik ish haqi	so'm	1400000
8	1 ishchining o'rtacha- oylik ish haqi	so'm	900000

XULOSA

1. Bakalavr malakaviy bitiruv ishimda butan va butilen fraksiyasidagi izobutanni sulfat kislotali alkillash texnologiyasi texnik iqtisodiy asoslari o'rganib chiqildi.
2. Xom-ashyo, tayyor mahsulotlar olish uchun termik va katolitik kreking jarayonida hosil bo'ladigan butan va butin moddalari xom-ashyo sifatida ishlatildi. Bu esa arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqarishga yordam bergan.
3. Asosiy qurilmaning ya'ni neytralizatorning geometrik parametrlari hisoblab topildi. Mos kelgan aralashtirgichli neytralizator qurilmasi tanlandi.
4. O'lchov asboblari zamonaviy sensorli avtomatlashtirish jihozlari bilan avtomatlashtirildi. Bu esa mahsulotning sifatini yaxshilashga yordam berdi.
5. Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan chiqindilar miqdori O'zbekiston Respublikasi ekologik talablariga moslashtirildi. Tashlab yuboriladigan chiqindilar kamaytirildi. Oqova suvlarini ifloslanishi va suv sarfi kamaytiriladi.
6. Yuqoridagi talablarni inobatga olib, loyihalanayotgan ishimizni iqtisodiy hisob-kitobi qilindi. Arzon va sifatli mahsulot olishga muvaffaq bo'lindi. Bakalavr malakaviy bitiruv ishimdan maqsad butan va butilen fraksiyasidagi izobutanni sulfat kislota yordamida alkillab 2,2,4; 2,3,4; va 2,3,3- uch metilpentanlar aralashmasini xosil qilish va yuqori sifatli yoqilgi ishlab chiqarishga xizmat qilish. Evro standartlarga mos keladigan sifatli yoqilg'i ishlab chiqarish yurtimiz neft va neft maxsulotlari eksportini yuksaltirish. Xalq xo'jaligini sifati yiqilg'iga bo'lgan ehtiyojini qondirish Ekologik toza atrof muhitni kam zararlaydigan ichki yonuv dvegatellarini samaradorligini oshiradigan va ularning foydali ish koefisintini oshiradigan yuqori sifatli yuqori oktan sonli eksportbop neft va neft maxsulotlarini ishlab chiqarish . Vatanimiz kundan kunga rivojlanib bormoqda shuning bilah birga aholining va xalq xo'jaligining yuqori sifatli yoqilg'i va neft maxsulotlariga bo'lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda. Shu muommolarni urganib chiqib aholini va xalq xo'jaligini yuqori sifatli yoqilg'i bilan taminlab jahon bozorida raqobatbop yoqilg'i va neft maxsulori ishlab chiqarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. 15 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 2016 yil.
2. O.S. Maksumova, S.M. Turobjonov, Organik sintez mahsulotlari texnologiyasi, Toshkent, 2010, Fan va taraqqiyot, 131 b.
3. Yunusov I.I., Artikov A.A., Ismatullaev P.R. Kimyo va oziq-ovqat texnologiyasida EXM qo'llash fanidan o'quv qo'llanma. - Toshkent: ToshKTI, 2000. - 145 b
4. Yusupbekov N.R., Nurmuhamedov X.S., Zokirov S.G., Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari., Toshkent, 2003., 369 - 383 b.
YU.V. Gavrilov, S.A. Sinitsin, N.V. Koroleva. Pererabotka tverдых prirodnых energonositeley. Uchebnoe posobie. M.: RXTU, 2001.- 160 s.
5. UY.I. Deytnerskiy, Osnovные ximicheskie protsessы i apparaty. M.: Ximiya, 2001. 484 c.
6. T.V.Pleteneva, E.M. Salomatin i dr. Toksikologicheskaya ximiya: Uchebnik dlya vuzov. M.: GEOTAR – Media, 2005.
7. O.Qudratov, G.G'aniev. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro himoyasi. YAngi asr avlodi, 2005 y., 243 b.
8. U.YUldoshev, O.Qudratov. Xayot faoliyati havfsizligi, Toshkent, 2006 y. 235 b.
9. Atrof muxitni muxofaza qilish" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni 1992 y. 9 dekabr
10. Ekologik ekspertiza" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2000.
11. CHiqindilar" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2002.
12. N.R.Yusufbekov. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish.Toshkent, Sharq 2003. - 585b
13. O.Shodmonov, Q.O'lmasov. Iqtisodiyot nazariyasi.Toshkent 2005. - 450b

14. Ш.У.Хайдаров, Л.П.Югай, Н.Х.Хасанов. Заработная плата на предприятии. Т: Издательский дом. Мир экономика и права. 2003. - 291с
15. Mallayev X.T. Turdiqulov A.A. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish. Toshkent 2005 - 254b
16. U.Yuldoshev, O.Qudratov. Xayotfaoliyatixavfsizligi. toskkent 2006. - 235b
17. www.ziyonet.uz,
18. www.studantbank.
19. riz1.jimdo.com